



## "MAKTABGACHA TA'LIM"

**Xolmatova Shahnoza Xotamjonovna**

*Uzun tumanidagi 12-maktabgacha  
ta'lif tashkiloti tarbiyachisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lif sohasi uzlusiz ta'lif tizimining dastlabki bo'g'ini bo'lishi bilan birga keyingi ta'lif tizimida, bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishi haqida, Ta'lif tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lifda jadal o'zgarishlar yuz berayotganligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lif, islohotlar, ta'lif tizimi, kengaytirish, muassasa, takomillashtirish, ta'lif-tarbiya.

Maktabgacha ta'lif tizimini yaxlit uzlusiz ta'lif tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lif muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lif dasturlari va texnologiyalarini ta'lif-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan muhtaram prezidentimizning 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lif tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955 qarorida ham qator ustuvor vazifalar belgilab berildi. Jumladan:

- Maktabgacha ta'lif muassasalari uchun o'quv-metodik va didaktik adabiyotlar tayyorlash, tanlash va ekspertizadan o'tkazish, shuningdek, ularni nashr qilishni takomillashtirish bo'yicha mexanizmlarni joriy etish.

- Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida maktabgacha ta'lifning muqobil shakllarini ishlab chiqish.

- Davlat maktabgacha ta'lif muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash va xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun ularni qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatishga rag'batlantirish tartibini ishlab chiqish.

- Davlat maktabgacha ta'lif muassasalarida boshqaruvning zamonaviy shakllarini joriy etish orqali shaffoflikni ta'minlash.

- Maktabgacha ta'lif muassasalari rahbarlari malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

- Maktabgacha ta'lif pedagoglarini zarur metodistik materiallar bilan ta'minlash.

Maktabgacha ta'lif sohasi uzlusiz ta'lif tizimining dastlabki bo'g'ini bo'lishi bilan birga keyingi ta'lif tizimida, bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bu ta'lif sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim,



yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev bu tizimni chuqur tahlil qilib, shu paytgacha nazardan chetda bo'lgan eng kichik jihatlarigacha e'tibor qaratdi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va o'quv-tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha qolayotganligi aniqlandi.

Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda va ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining xuquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim muassasalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda; nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i kengaymoqda; ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda. Ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlari yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim sohasida misli ko'rilmagan o'zgarishlarni bugun har bir yurtdoshimiz sezib, kuzatib turibdi. Ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimiga davlat tomonidan bu qadar tizimli va bir-birini to'ldiruvchi e'tibor hamda amaliy yordam kuzatilmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etish va 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lган bolalarning to'laqonli ta'lim-tarbiya olishini ta'minlash masalasi davlatimiz rahbari tomonidan kechiktirib bo'lmas vazifa sifatida ilgari surildi. Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Qabul qilinayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadigan yuqori malakali tarbiyachilarni tayyorlash masalasi kun tartibiga chiqdi. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifa edi. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi qabul qilindi. Endilikda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachilari bolalarni erkin qo'ygan holda faollik markazlarida o'yin mashg'ulotlari orqali yangi ma'lumotlarni o'rgatmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlan Tiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va



texnologiyalarini ta'lif-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyoragarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda.

2018 -yilning sentabr oyidan tatbiq qilinadigan yangi maktabgacha ta'lif dasturi davlat talablariga asoslangan va respublikadagi barcha maktabgacha ta'lif muassasalari yangi dastur bilan tanishtirilgan.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lif tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lif sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lif sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lif tizimni yaratish ko'zda tutildi.

Har bir ota-onasi o'z farzandini eng bilimdon, yuksak ma'rifatli, mahoratli, ijodkor tarbiyachi tarbiyasiga berishni istaydi. Maktabgacha ta'lif pedagogikasi bo'lajak tarbiyachilarga talabalik davridan boshlab, maktabgacha ta'lifning asl mohiyati bola va tarbiyachining hamkorlik faoliyati ekanligini, bola tarbiyasining maqsadini, bola ruhiyatini rivojlantirish qoidalariga amal qilishni o'rgatadi. O'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun tarbiyachi maktabgacha ta'lif pedagogikasi fanini chuqur egallashi lozim. Maktabgacha ta'lif muassasasi, shuningdek, bolalar bog'chasi, boshlang'ich maktab yoki o'yin maktabi sifatida ham tanilgan, bolalarga boshlang'ich maktabda majburiy ta'lifni boshlashdan oldin erta bolalik davridagi ta'lifni taklif qiladigan ta'lif muassasasi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'quv dasturlari uzoq vaqtdan beri munozaralarga sabab bo'lgan. Buning ko'p qismi mazmun va pedagogika ustida bo'ladi; o'quv rejasiga akademik mazmunni qanchalik kiritish kerakligi va kattalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan rasmiy o'qitish yoki bolalar tashabbusi bilan o'rganish samaraliroqligi haqida fikr yuritiladi.<sup>[19]</sup> Xalqaro miqyosda bunday turdag'i erta bolalarni parvarish qilish va ta'lif dasturiga va bolaning umumiy rivojlanishini, jumladan, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishini, hissiy va ma'naviy farovonligini, ijtimoiy kompetensiyasini, intellektual rivojlanishini va muloqot qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlaydigan keng qamrovli o'quv dasturini himoya qilishga keskin qarshilik mavjud.<sup>[20]</sup>



Maktabgacha ta'lif pedagogikasi fani eng muhim asosiy pedagogik munosabatlar sabablarini aniqlaydi, uni pedagogik jarayonda o'rganadi. Ushbu fan bo'lajak



tarbiyachilarni maktabgacha ta'lrim muassasalarida tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu sababdan o'quv qo'llanmada maktabgacha pedagogika fanining nazariy va amaliy masalalarini yoritib berishga alohida e'tibor qaratildiv. Maktabgacha ta'lrim pedagogikasi fani inson kamolotiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga, jahon mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog olimlarining asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalashning qonun, qoida va tamoyillariga asoslanadi. Maktabgacha ta'lrim pedagogikasining milliy asoslari: ta'limtarbiya masalalari, har bir millatning milliy merosiga, umumz bashariy qadriyatlariga bog'langan holda bog'cha yoshidan boshlab o'zligini anglash, erkin fikrlash, g'urur tuyg'ularini shakllantirishga qaratiladi.

Maktabgacha ta'lrim pedagogikasi jamiyat va insonni o'rganuvchi fanlar bilan chambarchas bog'langan. Pedagogika ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyani o'rganar ekan, sotsiologiya, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, falsafa bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki mazkur fanlar asosida tarbiyaning maqsadi va vazifalarini o'rganish metodologiyasi belgilanadi. Tarbiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi ijtimoiy hodisa ekanligi, jamiyat hayotida va kishi shaxsining rivojlanishida tarbiyaning rolini baholashga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A'zamxonov S.X Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili 247-254 -b <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533>
2. Bahodir o'g'li I. M. Yoshlarning Ijtimoiy Faolligini Oshirish Jamiyat Rivojlanishining Omili Sifatida //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 24. – С. 521-523.
3. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” ([www.tadqiqot.uz\soci](http://www.tadqiqot.uz\soci)) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>
4. Ахмедова Ф.М. Pandemiya davridagi ta'lrim tizimi Журнал социальных исследований, 2020